

Date: 17th February-2025

**NOSIRIDDIN RABG'UZIYNING "ZARBULMASAL" ASARI BADIY TAHLILI
VA INSON RUHIYATI TASVIRI**

Vafoqulova Go'zal Ochilovna

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Telefon +998(97)9252885

Annotatsiya: Maqolada "Zarbulmasal" asrining badiiy tahlili va asar qahramonlarining hayotdagi qiyosiga to'xtalgan.

Kalit so'zlar: "zarbulmasal", maqol, matal, ramzli hikoya, chordevor, pandnoma, risola.

„Zarbulmasal” — hayvonlar haqidagi qiziqarli voqealarga boy asar. Lekin hayvonlar kechirgan voqealarga chalg'ib qolmaslik kerak. U, aslida, odamlar haqidagi asardir. Shoir qush haqidami, tuya haqidami, chayon yoki toshbaqa haqidami yozmasin, hamisha odamni ko'z oldiga keltirib asar yozgan. U, avvalo, bir tildagi masallarning oddiy to'plamini anglatgan. Shuningdek, bir tildagi masallarning boshqa tilga qilingan tarjimalari ham „zarbulmasal” deb nomlangan. Biror masalga tayanib pandnoma yo'nalishida bitilgan risola ham „zarbulmasal” atalgan. Bu o'rinda „zarbulmasal” — maqol, matal, ramzli hikoya ma'nosini anglatuvchi so'z. Shuningdek, zarbulmasal atamasini maqol va masallar yig'indisi, majmuyi ma'nosida ham ishlatish mumkin. Chunki „zarb” so'zi ko'paytirish ma'nosini ham anglatadi. Bunga masal, maqol, hikmat va matallardan o'rinli foydalanish evaziga erishilgan. „Zarbulmasal”dagi hikoya ichida hikoya yo'sinida berilgan „Maymun bilan najor”, „Tuya bilan bo'taloq”, „Toshbaqa bilan chayon” kabi masallar zimmalariga yuklangan badiiy vazifalaridan tashqari ham mustaqil estetik qimmat kasb etib, asarning umumiyl jozibasini oshirishga xizmat qilgan. „Zarbulmasal”da qushlar timsolidan foydalanib, insonlar va ular orasidagi murakkab munosabatlар tasvirlangan. Asarda inson ruhiyati tasviri alohida berilmay, qushlarning o'zaro suhbatlari zamiriga singdirilgan. „Zarbulmasal”da uchraydigan badiiy obrazlarni: a) qushlar obrazlari; b) hayvon-hasharot obrazlari; v) odam obrazlari tarzida uchga bo'lish mumkin Yozuvchi qushlar vositasida ularning prototiplari bo'l mish odamlarga xos jihatlarni aks ettirgan bo'lsa-da, ayni vaqtida, har bir qushga xos bo'l gan individual belgilarni berishni ham yoddan chiqarmaydi. Ko'pincha, qushlarning otida ularning fe'l i aks etadi. Chunonchi, Ko'rpushning ko'rligi, Boyqushning sovuqnafas va xasisligi, Kordonning korchalonligi, Kuykanakning kichik jussali hamda kuyunchakligi laqab bilan tabiatning mos kelishiga misol bo'la oladi. Yapaloqqush bilan Boyqush asardagi markaziy qahra-monlardir. Asarning sujeti ana shu timsollarning o'zaro quda-anda bo'lishiga bog'liq voqealar asosida rivojlanadi. Yapaloqqush — bir qadar davlatmand kimsa timsoli. U o'zidan ham sarmoyaliroq, taniqliroq kishi bilan quda bo'lishni orzu qiladi. O'zidan balandlarga intilgani uchun ham o'g'liga Kulonkir sulton deb ism qo'yadi, Boyqush bilan quda bo'lishga urinadi. Adib Yapaloqqush misolida qo'lidan kelmaydigan ishga urinadigan, boylig-u shon-shuhratga

Date: 17th February-2025



mukkasidan ketgan kimsa obrazini yaratadi. U o'z holini bilmaydi, bildirganlarida esa tan olgisi kelmaydi. Yapaloqbibining: „O'glimning asbobi kulangirligi minqori bilan changalidan ma'lum va ravshan emasmu?!" — degan gaplarida uning shaxsiyatiga xos maqtanchoqlik, zo'ravonlik sifatlari ma'lum bo'ladi. Kulonkir sulton ham onasiga munosib farzand. U — qushlar shohining pahlavoni. Kuch-qudrati bilan o'zgalarda dahshat uyg'otishga mohir. Lekin yaxshi tarbiya ko'rmagani, tabiatida yetuklik bo'limgan uchun ham Ko'rqush unikiga borganda mehmonga qanday muomala qilishni bilmasligini namoyon qiladi. Asardagi mezbonlik tutumi tasviri Kulonkir sulton va uning xizmatkorlarining odamgarchiligiga baho berishga asos bo'ladi. Mehmonga sarqit ovqat taklif etishi, uning ham ko'pini o'zi yeb qo'yishi singari hllarda befarosat, yebto'ymas, tarbiyasiz Kulonkirning asl qiyofasi namoyon bo'ladi.

Boyqushning kibri, qattiqligi, boshqalarni mensimasligi, o'zgalarning fikri bilan hisoblashmasligi asar matnida juda qiziqarli yo'sinda ko'rsatilgan. Ko'proq qalin undirish uchun qizining baxtidan kechishga ham tayyorligi uning shaxsiga xos xususiyatlarni yorqin aks ettiradi. Asarda Boyqushga „Anda Ko'rqush ko'rdiki, xasis-u haris, agar ming chordevordin bir chordevor kam bo'lsa, o'tuz tishini bir-biridin sindirur", degan ta'rif beriladi. Agar Boyqush, Yapaloqqush, Ko'rqush, Kordon, Turumtoy, Kulonkir singari qushlarga xos sifatlar ularning o'zaro muomala-munosabatlari asnosida ko'rsatilgan bo'lsa, bir qator qushlarga tegishli jihatlar ularga boshqalar bergan tavsiflar asosida ochilgan. Jumladan, Yapaloqqushning do'sti — Sho'ranulga bergan ta'rifi qarg'a tabiatiga xos xususiyatlarni yorqin namoyon etishidan tashqari, bu ta'rifda o'sha davrdagi ayrim odamlarga tegishli bo'lgan sifatlar ham aks etganligi „Zarbulmasal"ning umumlashma kuchini ko'rsatadi. Asarda qarg'a Sho'ranul yashaydigan yurt qushlarining podshohi Malik Shohinning pahlavoni Kulonkirning uylanishiga saxiylik qilishi sabablari hayotiy jihatdan ishonarli asoslangan. Uning qo'l ostidagi odamlariga munosabatini baholashda asar matniga tayanilsa, ham Malik Shohinning tabiatni ochiladi, ham Gulxaniyning tasvir mahorati ilg'ab olinadi. Kordon xazinachining kelinga beriladigan mahr miqdorini aniqlash borasidagi mulohazasi uning shaxsiga beriladigan bahoning asosi bo'lishi mumkin. Timsolning mohiyatini anglagan sari o'quvchi Kordonning himmat kamarini g'aravdek bir necha yerdan bog'lashining sababini anglab olishi osonlashadi. Kordonning Turumtoy bilan suhbatida keltirilgan maqollarning nechog'lik o'z o'rnida ekanligini, bu maqollarning suhbatdoshlar tabiatini ochishdagi ahamiyatini anglash asar badiiy qudratini anglash imkonini beradi. Farg'ona bilan Buxoro va Zarbulmasal"ning majoziy ma'nosi, asardagi har bir qush obrazining biror toifaga mansub jonli odamni ifodalashi, bir-birini „cho'qib" emas, balki „chaqib" olishga tayyor, tili zahar qushlar timsoli Gulxaniy tomonidan ayni odamlarga xos illatlarni aks ettirish maqsadida tasvirlanganligi anglab yetilgandagina asardan chiqariladigan badiiy va hayotiy ma'nuning qimmati yuqori bo'ladi.

Gulxaniy ijodiy faoliyatidagi eng muhim fazilati shundan iboratki, u o'z davrining folklorshunosi sifatida o'zbek xalqining beqiyos donishmandligini ifoda etgan masallar, maqollarni to'plab, mashhur „Zarbulmasal" asarini yaratdi.

Date: 17th February-2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik-majmua. –Toshkent, 2006
2. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent, «O'qituvchi», 1976.

